

YaNGI O'ZBEKISTON OSTONASI MAKTABDAN BOSHLANADI



YaNGI O'ZBEKISTON OSTONASI MAKTABDAN BOSHLANADI

Tumanimizning Yangiariq mahallasida joylashgan 2-sonli informatika va axborot texnologiyalariga ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktabida bo'lgan tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev maktab pedagogik jamoasi va o'quvchilari bilan uchrashdi. Mazkur maktabda mahalla, maktab va oila hamkorligi keng yo'lga qo'yilgan.

Tuman hokimi ta'lim dargohida homiylar hisobidan bunyod etilayotgan majlislar zali hamda zamonaviy kutubxonani ko'zdan kechirdi. So'ngra maktab o'quvchilariga dars o'tdi. – Eng avvalo har bir rahbar o'z faoliyatini har kuni maktab hayotini o'rganishdan boshlashi lozim. Zero yangi O'zbekistonning ostonasi maktabdan boshlanadi, - deydi Sayidbahrom Sayidmusayev. Aytish lozim, maktab qozonxonasi ham bugun ta'mirlanmoqda.

Mahalladagi 22-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti ham homiylar kumagida bunyod etilgan. Ushbu dargohga tashrif buyurib, tuman hokimi ta'limdohda olib borilayotgan ishlar ko'lamini ko'zdan kechirdi. Tashkilot mutasaddilarining muammolarini o'rgandi. Tuman maktabgacha ta'lim tashkiloti mudiri G. Usmonovanning ma'lumotiga ko'ra, bu yili ushbu ta'lim tashkiloti davlat mablag'lari hisobidan kapital rekonstruktsiya dasturiga kiritilgan.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2021-02-27 11:02:26